



MOLIYAVIY MUSTAQIL OLIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Alimardonov Asrorjon

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0001-3992-8139

asror.alimardonov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi. Moliyaviy mustaqillik sifatida - universitetlarning resurslar bilan erkin boshqaruv qilish qobiliyati, strategik qarorlar qabul qilishda mustaqillik, moliyalash manbalarini diversifikatsiya qilish va ta'lim sifati, innovatsion faoliyat hamda samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Milliy ta'lim tizimida moliyaviy mustaqillikka o'tishdagi to'siqlar - qonunchilik kamchiliklari, moliyaviy savodxonlik yetishmasligi, xususiy sektor bilan hamkorlikning zaifligi kabi omillar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik modelini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish, grant va investitsiya resurslarini faol jalb qilish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyaviy mustaqillik, ta'lim muassasalari boshqaruvi, moliyalashtirish modellari, davlat byudjetiga bog'liqlik, grantlar, xo'jalik shartnomalari, innovatsion rivojlanish, qonunchilik asoslari, moliyaviy savodxonlik, xalqaro tajriba, ta'lim sifatini oshirish, universitet avtonomiyasi, diversifikatsiya, korporativ boshqaruv, resurslarni boshqarish, ta'lim iqtisodiyoti, SWOT tahlil, institutsional erkinlik.

ФИНАНСОВАЯ НЕЗАВИСИМОСТЬ НАУЧНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ

Алимардонов Асроржон

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены научно-теоретические основы, практическая значимость и тенденции развития обеспечения финансовой независимости высших учебных заведений. Как финансовая самостоятельность-способность вузов свободно распоряжаться ресурсами, самостоятельность в принятии стратегических решений, диверсификация источников финансирования и качества образования, инновационная деятельность рассматриваются как один из основных факторов повышения эффективности. Глубоко проанализированы барьеры на пути к финансовой независимости в национальной системе образования-такие факторы, как пробелы в законодательстве, отсутствие финансовой грамотности, слабость сотрудничества с частным сектором. Также разработаны научно-практические рекомендации для высших учебных заведений Узбекистана по поэтапному внедрению модели финансовой независимости, повышению кадрового потенциала, активному привлечению грантовых и инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: высшее образование, финансовая независимость, управление учебными заведениями, модели финансирования, зависимость от государственного бюджета, гранты, бизнес-контракты, инновационное развитие, законодательные основы, финансовая грамотность, международный опыт, повышение качества образования, университетская автономия, диверсификация, корпоративное управление, управление ресурсами, экономика образования, SWOT-анализ, институциональная свобода.

FINANCIAL INDEPENDENCE SCIENTIFIC THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Alimardonov Asrorjon

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article will study the scientific and theoretical foundations, practical significance and development trends of ensuring financial independence in higher education institutions. As financial independence-the ability of universities to freely manage resources, independence in strategic decision-making, diversification of sources of financing and quality of education, innovative activities and one of the main factors in improving efficiency. In the national education system, such factors as obstacles to the transition to financial independence - legislative shortcomings, lack of financial literacy, weakness of cooperation with the private sector are deeply analyzed. Scientific and practical recommendations have also been developed for higher educational institutions of Uzbekistan on the implementation of a phased model of financial independence, the development of personnel capacity, the active involvement of grant and investment resources.*

Keywords: *higher education, financial independence, educational institution management, financing models, state budget dependence, grants, economic contracts, innovative development, legislative framework, financial literacy, international experience, educational quality improvement, university autonomy, diversification, corporate governance, resource management, educational economics, SWOT analysis, institutional freedom.*

Kirish.

So'nggi yillarda global miqyosda oliy ta'lim muassasalarining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Ularning faoliyati endi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiyotga malakali mutaxassislar yetkazib berish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, innovatsiyalar yaratish va jamiyat taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashda muhim faktorga aylandi. Shu boisdan, universitetlarning moliyaviy barqarorligi va mustaqilligi bugungi kunda nafaqat institutsional taraqqiyot mezonini, balki milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi izchil isloh etilib, bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritish qobiliyatini oshirishga qaratilgan islohotlar avj olmoqda. Xususan, ta'lim muassasalariga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berish orqali ularni davlat idoralaridan mustaqil, raqobatbardosh, samarali tashkilot sifatida shakllantirishga intilish kuzatilmoqda. Prezident farmonlari va qarorlari bilan oliy ta'lim muassasalariga xo'jalik sub'ektlari sifatida mustaqil moliyaviy faoliyat yuritish huquqi berildi, bu esa ularning resurs bazasini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida bozor talablariga moslashishini taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim tizimi har qanday mamlakatning intellektual salohiyatini belgilab beradigan strategik sektor hisoblanadi. XXI asrda global raqobat kuchayib, bilim va innovatsiya iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari jadallashgan bir sharoitda universitetlarning mustaqilligi, ayniqsa moliyaviy mustaqilligi ularning samarali faoliyati, barqaror rivojlanishi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lishi uchun hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Xalqaro amaliyotdagi tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan ta'lim tizimlari moliyaviy erkinlikni faqat davlat budjetidan chetda turib mablag' topish imkoniyati sifatida emas, balki universitetlarning o'z strategik qarorlarini qabul qilishda, kadrlar siyosatida, ta'lim dasturlarini shakllantirishda va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda mustaqil harakat qilish salohiyati sifatida talqin etmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlardagi yetakchi universitetlar o'z budjetlarining 40–70% ni to'lov-kontrakt, xo'jalik shartnomalari, grantlar va investitsiyalar hisobiga shakllantiradi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini isloh qilish doirasida ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish bo'yicha huquqiy asoslar yaratib berilmoqda. Xususan, Prezidentning 2021 yil 28 maydagi PF-5117-son farmoni, 2022 yil 12 apreldagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi»da ta'lim muassasalarini moliyaviy va tashkiliy jihatdan erkinlashtirish, ularni bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bundan tashqari, ayrim universitetlarga «o'zini o'zi moliyalashtirish» rejimi joriy etilishi, ustav kapitaliga ega bo'lgan davlat OTMlarini tashkil etish va ta'lim muassasalarining xo'jalik sub'ektlari sifatida faoliyat yuritish huquqi berilishi dolzarb islohotlarning bir qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonda bir qator tizimli muammolar mavjud. Birinchidan, ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslar bilan mustaqil boshqaruv qilish tajribasi yetarli emas. Ikkinchidan, daromad manbalarining cheklanganligi va ularning noaniq huquqiy tartibga solinganligi universitetlarning erkin harakat qilish imkoniyatini cheklaydi. Uchinchidan, moliyaviy mustaqillikni joriy etish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar yetishmasligi, boshqaruv kadrlarining malakali emasligi masalasi ham yechim talab qiladi.

Bu masalaning yana bir muhim jihati - moliyaviy mustaqillikning ta'lim sifatini oshirishdagi roli. Universitetlarning mustaqil moliyaviy siyosat yuritishi ularga daromadlarni qayta investitsiya qilish, zamonaviy infratuzilma yaratish, ilmiy laboratoriyalar barpo etish, professor-o'qituvchilarga munosib maosh to'lash, xorijiy hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi. Shu tarzda universitetlarda ilmiy salohiyat kuchayadi, ta'lim dasturlari jahon standartlariga moslashadi va bitiruvchilarning raqobatbardoshligi ortadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy zarurat, balki milliy kadrlar siyosati, innovatsion iqtisodiyot qurish va davlat budjetining samarali boshqarilishi uchun ham strategik ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Shuning uchun moliyaviy mustaqillikka erishish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash, xorijiy tajribani tahlil qilish, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda samarali model ishlab chiqish bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Adabiyotlar sharhi.

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ilmiy jihatdan o'rganishda xorijiy va mahalliy tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzuda olib borilgan izlanishlar turli modellar, yondashuvlar va amaliyotlarni nazarda tutadi, ammo ularning tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda moliyaviy mustaqillik faqat daromad manbalarining ko'paytirilishi bilan cheklanib qoladi. Amalda esa, bu tushuncha universitetlarning strategik qarorlar qabul qilish, xatarlarni boshqarish va resurslardan samarali foydalanish qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Moliyaviy mustaqillikning nazariy asoslarini yaratgan mutaxassislardan biri – Berton Klark hisoblanadi. Uning «Entrepreneurial Universities» nomli asarida ta'lim muassasalarining tadbirkorlik xususiyatini kuchaytirish, diversifikatsiya qilingan moliya manbalarini joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish yo'llari keng tahlil qilingan. Klarkga (1998) ko'ra, moliyaviy mustaqillik universitetlarning tashqi muhit bilan faol aloqasini ta'minlaydi, innovatsion faoliyatga imkoniyat yaratadi va ichki boshqaruvni takomillashtiradi. Ammo uning

modeli ko'proq xususiy sektorda faoliyat yurituvchi, raqobatbardosh universitetlar uchun mos keladi, davlatga qaram tizimlarda to'liq tatbiq qilish murakkab.

Shuningdek, Daniel Jonston (2001) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ta'lim moliyasi sohasida olib borgan ilmiy ishlarida universitetlarni moliyalashtirishda davlat va shaxsiy sektor o'rtasidagi mas'uliyatni qayta taqsimlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning «The Finance and Accessibility of Higher Education» nomli asarida ta'lim muassasalariga moliyaviy avtonomiya berish imkoniyatlari va xatarlari o'rganilgan. Jonston fikriga ko'ra, moliyaviy mustaqillik ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi, ammo bu bilan birga samarali nazorat va javobgarlik mexanizmlari ham yaratilishi shart. Bu fikr ayniqsa davlat moliyasiga yuqori darajada bog'langan tizimlar uchun dolzarb.

Mahalliy olimlar ichida Jo'raev (2019) o'zining maqolalarida oliy ta'lim muassasalarining moliyalashtirish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarga to'xtalib, joriy etilayotgan «o'zini o'zi moliyalashtirish» mexanizmlarining huquqiy va tashkiliy jihatdan yetarli darajada ta'minlanmaganini tanqid qiladi. Uning ta'kidlashicha, avtonomiya konsepsiyasini amalda tatbiq etish uchun tizimli yondashuv, moliyaviy savodxonlikni oshirish va ichki nazorat organlarini mustaqil qilish zarur.

Solixov (2020) va Raxmatov (2021) kabi tadqiqotchilar esa universitetlarning xo'jalik faoliyatidan oladigan daromadlarini kengaytirish, grantlar va investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Ular ta'lim muassasalarini bozor sub'ektlariga aylantirish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish mumkinligini ilmiy asoslaydilar, biroq bu jarayonda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlov, infratuzilmaviy resurslar va huquqiy kafolatlar yetarli emasligini qayd etadilar.

Mavzu bo'yicha olib borilgan xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy mustaqillik tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha yondashuvlarda tadqiq etilgan. Ayrim tadqiqotlar uning iqtisodiy mexanizmlariga, boshqalari esa strategik boshqaruv, xatarni kamaytirish, inson kapitali va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Margaret Bleyden va Alan Smit (2002) o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning o'ziga xos davlat-xususiy sheriklik modeliga asoslangan yondashuvni tavsiya qiladilar. Ularga ko'ra, davlat mablag'lari bilan bir qatorda xususiy mablag'larni jalb etish, universitetlarning bozor sharoitida mustaqil moliyaviy faoliyat yuritishi uchun qulay muhit yaratish ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi. Ammo, ular ta'kidlagan muammo - bu moliyaviy erkinlik ortidan ta'lim sifatining tengsizligi, ya'ni moliyaviy imkoniyatlari yuqori universitetlar bilan boshqalar o'rtasidagi farq ortgani haqidadir.

Frans van Vutselar (2008) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, Yevropadagi universitetlar moliyaviy avtonomiyasi bo'yicha o'tkazgan keng ko'lamlı tahlilda ta'lim muassasalarining institutsional mustaqilligi va davlatdan moliyaviy ajralish darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlat tomonidan belgilangan qat'iy moliyaviy standartlar universitetlarning innovatsion faoliyatini cheklaydi, bu esa ta'lim sifatini pasaytiradi.

Jan Martino va Kristina Rossi (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ta'lim muassasalarida moliyaviy xatarlar boshqaruvi bo'yicha ishlab chiqqan modellarida moliyaviy mustaqillikni tashkil qilish uchun ikkita shartini belgilaydilar: resurslarni aniq rejalashtirish qobiliyati; boshqaruv organlarining hisobdorligi va shaffoflik darajasi. Ularning tahlillari asosida universitetlarning moliyaviy erkinligiga erishishi uchun iqtisodiy savodxonlik, moliya mexanizmlari va strategik boshqaruvni bir vaqtda mustahkamlash talab etiladi.

O'zbekistonlik olimlar orasida Nosirov (2020) o'zining ilmiy izlanishlarida, ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning huquqiy-tashkiliy bazasi yetarlicha aniq belgilanmaganini tanqid qiladi. Uning fikricha, amaldagi farmon va qarorlar yetarlicha aniq moliyaviy mexanizmlar, samaradorlik ko'rsatkichlari hamda hisobdorlik standartlarini belgilamagan, shu bois muassasalarda turli talqin va noto'g'ri amaliyotlar yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, Qurbonova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ta'lim muassasalarining moliyaviy diversifikatsiyasi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotida hozirgi sharoitda universitetlar hali ham to'lov-kontrakt mablag'lariga yuqori darajada qaram ekanini, investitsiya va innovatsiya faoliyati esa kam darajada rivojlanganini ta'kidlaydi.

Tanqidiy jihatdan qaralganda, aksariyat tadqiqotlar moliyaviy mustaqillikning konseptual modelini ishlab chiqmasdan, faqat mavjud holatga baho berish bilan cheklanadi. Bu esa amaliyotga mos, milliy xususiyatlarni inobatga olgan integral moliyaviy mustaqillik modelini shakllantirish zaruratini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki: xalqaro tadqiqotlar moliyaviy mustaqillikni strategik boshqaruv bilan bog'liq holda ko'radi; mahalliy tadqiqotlarda esa moliyaviy erkinlik ko'proq to'lov-kontrakt tushumlariga bog'lanmoqda, va bu yetarlicha diversifikatsiya qilinmagan; hali ham bu sohada konseptual yondashuvlar, milliy modellar va ilmiy-nazariy asoslarni chuqurlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Moliyaviy mustaqillik oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning ilmiy nazariy asoslarini tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy mustaqillik - bu faqat budjetdan tashqari daromadlar manbai emas, balki moliyaviy qarorlarni qabul qilishda erkinlik, xarajatlarni strategik rejalashtirish, investitsiyaviy faollikni oshirish, ta'lim sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish imkoniyati hamdir. Universitetlar moliyaviy erkinlikka ega bo'lmas ekan, ularning mustaqil ta'lim va tadqiqot strategiyalarini shakllantirishi, bozor ehtiyojlariga javob beruvchi ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirishi qiyinlashadi. Shuningdek, jahon reytingida yuqori o'rin egallayotgan universitetlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barqaror moliyaviy modellari mavjud va davlatdan to'liq mustaqil bo'lmasada, budjetdan tashqari daromadlar katta o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, mavjud modellarni tahlil qilish va milliy xususiyatlarga mos ravishda amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan. Maqolaning tadqiqot ob'ekti - oliy ta'lim muassasalari, uning predmeti - ularda moliyaviy mustaqillikni ta'minlash mexanizmlari, ilmiy asoslari va amaliyotdagi qo'llanish holatlaridir.

1-jadval

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston va xorij mamlakatlarining taqqoslama holati

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Janubiy Koriya	Buyuk Britaniya
1	Oliy ta'lim muassasalarining davlat budjetiga bog'liqlik darajasi (%)	62	25	20
2	To'lov - kontrakt tushumlarining umumiy daromaddagi ulushi	30	45	35
3	Grat va loyihalar hisobiga moliyalashtirish darajasi (%)	4	20	30
4	Xo'jalik shartnomalari hisobiga daromadlar (%)	2	10	15
5	Moliyaviy mustaqillikga ega bo'lgan OTM ulushi (%)	18	80	90

Manba: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini amalga oshirish bo'yicha O'zbekistondagi holatni xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali bir qator muhim xulosalar chiqarish mumkin. O'zbekiston, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalaridagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan:

1. Davlat budjetiga bog'liqlik. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirishning asosiy qismi hali ham davlat budjetiga bog'liq (62%). Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarnikidan 2-3 baravar yuqori. Masalan, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 20% atrofida, bu esa ularga strategik mustaqillik berish imkonini yaratadi.

2. To'lov-kontrakt tushumlari. O'zbekistonda to'lov-kontrakt hisobiga daromadlar 30% ni tashkil etmoqda, bu bir qarashda diversifikatsiya belgisi bo'lsa-da, xususiy va korporativ manbalarning yetishmasligi tufayli ta'sir doirasi cheklangan.

3. Grant va loyihalar hissasi. Grant mablag'lari va ilmiy loyihalar hissasi O'zbekistonda juda past - atigi 4%. Janubiy Koreya va Britaniyada bu ko'rsatkich mos ravishda 20% va 30% ni tashkil etadi. Bu farq universitetlarning ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilinishidagi katta farqni ko'rsatadi.

4. Xo'jalik shartnomalari. Xo'jalik shartnomalari asosida daromad olish O'zbekistonda juda kam (2%). Bu esa universitetlarning bozor munosabatlarida faol ishtirok etmayotganidan dalolat beradi.

5. Moliyaviy mustaqillikka ega universitetlar ulushi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich atigi 18% ni tashkil etsa, Janubiy Koreya va Britaniyada tegishli 80% va 90% ni tashkil etadi. Bu nafaqat tashkiliy mustaqillik, balki moliyaviy erkinlikni ham aks ettiradi.


Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar va olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra qo'yidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

-O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqillikka bosqichma-bosqich o'tish jarayonida, lekin hali ham davlat resurslariga yuqori darajada bog'liq holda faoliyat yuritmoqda;

-xususiy sektor, grantlar va xo'jalik shartnomalaridan moliyalashtirish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan;

-mavjud moliyaviy tizim universitetlarning strategik boshqaruv mustaqilligini cheklaydi, ilmiy va innovatsion salohiyatni so'ndirishi mumkin;

-davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy baza ijobiy natijalarga xizmat qilmoqda, biroq moliyaviy savodxonlik, diversifikatsiya va hisobdorlik mexanizmlari hamda ichki moliyaviy boshqaruv tizimlarini rivojlantirish talab etiladi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni ta'minlashdagi to'siqlar

Manba: tadqiqot natijasida o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalariga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, moliyachilari va boshqaruv kadrlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida moliyaviy mustaqillikni ta'minlashdagi asosiy to'siqlar ko'rsatilgan. Ular quyidagilar iborat:

-qonunchilik bazasining yetarli emasligi (78%) - bu to'siq moliyaviy mustaqillikni amalga oshirishdagi eng katta muammo sifatida qayd etilgan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar umumiy yo'riqnomalarga asoslangan bo'lib, mexanizmlar aniq belgilanmagan;

-moliyaviy savodxonlik (65%) - universitet moliyachilari va rahbarlarining strategik moliyaviy rejalashtirish, investitsiyalar bilan ishlash va xatarlarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli emas;

-xususiy sektor bilan hamkorlik kamligi (72%) - universitetlar hali-hamon bozor talablari asosida faoliyat yuritmayapti, ishlab chiqarish sektori bilan aloqalar sust;

-grant va investitsiya jalb qilish muammolari (69%) - xalqaro va mahalliy loyihalarda ishtirok etish, grantlar topish va ularni yuritish bo'yicha institutsional mexanizmlar yetarli emas;

-ichki moliyaviy nazorat tizimi (61%) - moliyaviy faoliyatning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlovchi nazorat tizimlari hali rivojlanmagan.

2-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda Oliy ta'lim muassasalarida erishilgan moliyaviy mustaqillik natijalari

No	Natijalar	Janubiy Koreya	Buyuk Britaniya
1	Ta'lim sifatining oshishi	92	94
2	Innovatsion faoliyatning ko'chayishi	88	91
3	Malakali kadrlarni jalb qilish imkoni	85	89
4	Daromad manbalarining diversifikatsiyasi	90	93
5	Xalqaro hamkorlikning kengayishi	87	90

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya universitetlari tajribasidan olingan. Unda moliyaviy mustaqillik joriy etilgandan keyin kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar foizlarda berilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ular quyidagilar iborat:

-ta'lim sifatining oshishi (94% Britaniya, 92% Koreya) - universitetlar mustaqil moliyaviy siyosat tufayli laboratoriyalar, professor-o'qituvchilar, resurslar va mutaxassislik dasturlarini yaxshilagan.

-innovatsion faoliyat (91%, 88%) - tadqiqot markazlari, startaplar va texnoparklar rivojlangan, davlatdan tashqari manbalar hisobiga moliyalashgan.

-malakali kadrlarni jalb qilish (89%, 85%) - yuqori maosh va ilmiy salohiyat uchun qulay muhit yaratilib, raqobatbardosh kadrlar jalb etilgan.

-daromad manbalarining diversifikatsiyasi (93%, 90%) - davlatdan tashqari grantlar, kontraktlar, xizmatlar eksporti va homiylik manbalari kengaygan.

-xalqaro hamkorlik (90%, 87%) - mustaqil budjet siyosatlari xalqaro universitetlar, ilmiy tashkilotlar va investitsiyaviy fondlar bilan faol hamkorlik qilish imkonini bergan.

Moliyaviy mustaqillik - bu faqat iqtisodiy ozodlik emas, balki strategik mustaqil qarorlar qabul qilish, kadrlar sifatini oshirish va innovatsion faollikni kuchaytirish imkoniyatidir. O'zbekistonda bu borada tizimli to'siqlar mavjud, ammo xalqaro amaliyot ularni yengib o'tish uchun qator yechimlar taklif qiladi: normativ-huquqiy mexanizmlarni aniq belgilash; moliyaviy savodxonlikni oshirish; xususiy sektorni universitet faolligiga jalb etish.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot davomida aniqlanishicha, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki strategik va institutsional ahamiyatga ega. Moliyaviy mustaqillik - bu universitetlarning o'z resurslari bilan erkin faoliyat yuritishi, mustaqil qaror qabul qilishi, daromad manbalarini diversifikatsiya qilishi va ta'lim-ilmiy sohalarda yuqori samaradorlikka erishishi uchun zarur shartdir.

O'rganilgan ilmiy manbalar va xalqaro tajribalar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, moliyaviy mustaqillikka ega universitetlar ta'lim sifatini tubdan oshirish, zamonaviy texnologiyalarga investitsiya kiritish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi mutaxassislik yo'nalishlarini joriy etish va ichki korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishda samarali natijalarga erishgan.

O'zbekiston tajribasi esa moliyaviy mustaqillikka o'tishning dastlabki bosqichlarida ekanini ko'rsatadi. Ayrim universitetlarga avtonomiya berilayotgan bo'lsa-da, moliyalashtirishning asosiy qismi hali ham davlat budjetiga bog'liq holda qolmoqda. Shu bois moliyaviy mustaqillikni to'liq amalga oshirish uchun bir qator tizimli chora-tadbirlar zarur:

1. Tashkiliy va huquqiy islohotlar olib borishni kengaytirish:

- moliyaviy mustaqillikni tartibga soluvchi alohida qonun yoki umummilliy konsepsiya ishlab chiqilishi lozim.

- universitetlarning moliyaviy faoliyati bo'yicha aniq va ishonchli hisobot berish standartlari joriy etilishi kerak.

2. Iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirib borish:

- universitetlarda turli moliyalash manbalarini (grantlar, kontraktlar, investitsiyalar, xo'jalik faoliyati, ijara, intellektual mulk) to'liq rivojlantirish zarur.

- davlat tomonidan moliyaviy xavfni kamaytirish maqsadida "moliyaviy mustaqillik uchun tayyorlik indeksi"ni joriy etish mumkin.

3. Kadrlar salohiyatini oshirib borish:

- moliyaviy mustaqillikni amalga oshiradigan kadrlar — moliyachilar, menejerlar, loyiha rahbarlari uchun maxsus tayyorlov dasturlari joriy etilishi shart.

- universitet rahbarlarining moliyaviy savodxonligi va risk boshqaruvi ko'nikmalari oshirilishi lozim.

4. Korporativ boshqaruv va shaffoflikni oshirish:

- universitetlar huzurida moliyaviy mustaqillik kengashlari tashkil qilinib, ularda tashqi ekspertlar, sanoat va xususiy sektor vakillari ishtirokini ta'minlash maqsadga muvofiq.

- hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash uchun audit, ichki nazorat va jamoatchilik nazorati tizimlari rivojlantirilishi kerak.

5. Milliy modelni bosqichma-bosqichlikda amalga oshirish:

- har bir universitetning salohiyati, mintaqaviy imkoniyatlari va tashkiliy tayyorligi hisobga olingan holda bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillikka o'tish strategiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

- ilg'or tajribaga ega oliygohlar uchun to'liq mustaqillik, boshqalar uchun pilot loyihalar shaklida joriy etish mumkin.

Moliyaviy mustaqillik - bu natija emas, balki uzluksiz jarayon. Universitetlar o'z moliyaviy siyosatini erkin belgilab, mablag'larni strategik yo'naltirish imkoniga ega bo'lsalar, ta'lim va ilmiy faoliyatning yangi bosqichiga chiqishi mumkin. Bunda davlatning vazifasi - imkoniyat yaratish, boshqaruvni samarali tashkil etish va muvaffaqiyatli tajribani tarqatishdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi bo'yicha tadqiqotlar va amaliy choralar qanchalik tez va asosli rivojlansa, mamlakatdagi ta'lim tizimining xalqaro maydonda raqobatbardoshligi shunchalik oshadi. Bu esa uzoq muddatli milliy taraqqiyotning barqaror poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Blöndal M., & Smith, A. (2002). *Public Spending on Education: Trends and Policy Implications*. OECD Education Working Paper.

Clark B.R. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Pergamon Press.

Jo'raev Sh.Sh. (2019). Oliy ta'limda moliyaviy mustaqillikni joriy etish masalalari. // *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, №4, 23–29-betlar.

Johnstone D.B. (2001). *The Finance and Accessibility of Higher Education in the World*. UNESCO.

Martino J., & Rossi, C. (2015). *Financial Risk Management in Higher Education Institutions*. *Journal of Finance in Education*, 9(3), 45–59.

Nosirov H.M. (2020). Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik: huquqiy asoslar va muammolar. // *"Moliya va iqtisod" jurnali*, №4, 33–39-betlar.

Qurbonova Z.M. (2022). Oliy ta'limda moliyaviy diversifikatsiya: muammolar va yechimlar. // *"Iqtisodiy tahlil" jurnali*, №2, 47–52-betlar.

Raxmatov F.X. (2021). Universitetlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda xo'jalik faoliyatining ahamiyati. // *"Ta'lim va innovatsiyalar" ilmiy-amaliy jurnali*, №3, 52–58-betlar.

Solixov U.T. (2020). Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligida resurslar boshqaruvining roli. // *"Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali*, №2, 41–47-betlar.

Van Vught F. (2008). *Mission Diversity and Reputation in Higher Education*. *Higher Education Policy*, 21(2), 151–174.